



BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH VA O'QITUVCHILARNING MALAKA OSHIRISHINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Saidova Dilnoza Maripovna,

Farg'ona viloyati Pedagogik mahorat markazi dotsenti.

dilnozasaidova1385@gmail.com

+998905841385

orcid.org 0009-0006-7249-2819

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1608>

MAQOLA HAQIDA / О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 48

KALIT SO'ZLAR / КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

boshlang'ich ta'lim, texnologiya darslari, kreativ fikrlash, ijodiy tafakkur, pedagogik asoslar, innovatsion metodlar, interfaol usullar, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, o'qituvchi kompetensiyasi, kasbiy rivojlanish, malaka oshirish, ta'lim samaradorligi, o'quvchi faolligi, metodik yondashuvlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari

ANNOTATSIYA / АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'qituvchilarning malaka oshirish tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammosi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda kreativ fikrlashning pedagogik-psixologik mohiyati, uning tarkibiy komponentlari (moslashuvchanlik, originallik, mustaqil fikrlash, muammoga yangicha yondashuv) ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olingan holda kreativlikni rivojlantirishning samarali yo'llari asoslab beriladi. Maqolada texnologiya darslarining mazmuni va imkoniyatlarini tahlil qilinib, aynan ushbu fan doirasida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratish zarurligi ta'kidlanadi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, dizayn va konstruktorlik faoliyati kabi yondashuvlarning samaradorligi misollar orqali ko'rsatib beriladi. Shu bilan birga, o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, yangilik yaratish va amaliy muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri — o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish masalasining chuqur tahlil qilinishidir. Maqolada o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi, zamonaviy yondashuvlardan foydalanish ko'nikmalari o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda hal qiluvchi omil sifatida ko'rib chiqiladi. Malaka oshirish jarayonining mazmuni, shakllari (seminarlar, treninglar, amaliy mashg'ulotlar, onlayn kurslar) hamda ularning samaradorligi ilmiy asosda tahlil etiladi. Maqolada o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi uzviylik, ya'ni o'qituvchining kasbiy rivoji bevosita o'quvchilarning ijodiy salohiyatiga ta'sir ko'rsatishi asoslab beriladi. Shuningdek, mavjud muammolar, jumladan, an'anaviy o'qitish usullarining ustunligi, metodik ta'minot yetishmovchiligi va malaka oshirish tizimidagi ayrim kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini yanada samarali tashkil etish, o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash hamda o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini tizimli ravishda shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar beriladi. Mazkur maqola boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, metodistlar va ilmiy tadqiqotchilar uchun dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 48

KEYWORDS

primary education, technology lessons, creative thinking, pedagogical foundations, innovative methods, interactive methods, project-based learning, problem-based learning, teacher competence, professional development, advanced training, educational effectiveness, student activity, methodological approaches, modern educational technologies

ANNOTATION

This article comprehensively analyzes the problem of the relationship between the development of students' creative thinking skills in the process of technology lessons in primary grades and the system of teacher training. The study covers the pedagogical and psychological essence of creative thinking, its structural components (adaptability, originality, independent thinking, a new approach to the problem) based on scientific sources. Also, effective ways to develop creativity at the primary education stage, taking into account the age characteristics of students, are substantiated. The article analyzes the content and capabilities of technology lessons and emphasizes the need to create a favorable pedagogical environment for the development of students' creative thinking within this discipline. The effectiveness of such approaches as interactive methods, project-based learning, problem-based learning, practical exercises, design and construction activities is shown through examples. At the same time, the importance of forming independent decision-making, innovation, and practical problem-solving skills in students is revealed. One of the important aspects of the research is an in-depth analysis of the issue of improving the professional skills of teachers. The article considers the methodological training of teachers, the level of mastery of innovative pedagogical technologies, and the skills to use modern approaches as decisive factors in the development of students' creative thinking. The content, forms of the professional development process (seminars, trainings, practical exercises, online courses) and their effectiveness are analyzed on a scientific basis. The article substantiates the continuity between the activities of the teacher and the student, that is, the direct impact of the teacher's professional development on the creative potential of students. It also identifies existing problems, including the dominance of traditional teaching methods, lack of methodological support, and some shortcomings in the professional development system, and develops proposals and recommendations to eliminate them. Based on the research results, practical recommendations are given to more effectively organize technology lessons in primary grades, ensure continuous professional development of teachers, and systematically develop creative thinking skills in students. This article is of urgent scientific and practical importance for educators, methodologists, and researchers working in the primary education system.

Kirish. Boshlang'ich ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining poydevori bo'lib, aynan shu bosqichda shaxsning fikrlash uslubi, dunyoqarashi va ijodiy salohiyati shakllanadi. Bugungi globallashuv va tezkor texnologik rivojlanish sharoitida esa faqat tayyor bilimlarni egallagan emas, balki mustaqil fikrlay oladigan, yangilik yarata oladigan, muammolarga

noodatij yechim topa oladigan shaxslarni tarbiyalash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan boshlang'ich sinflarda, ayniqsa texnologiya darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish muhim pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon esa o'z-o'zidan

o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va malaka oshirish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Texnologiya darslari o'zining amaliy yo'naltirilganligi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Bu darslarda o'quvchilar turli materiallar bilan ishlash, buyumlar yaratish, loyihalash, modellashtirish kabi faoliyatlar orqali bilim oladilar. Aynan shunday faoliyatlar jarayonida o'quvchilarning tasavvuri kengayadi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi va ijodiy yondashuv shakllanadi. Kreativ fikrlash esa bu jarayonning markazida turadi. Chunki har qanday amaliy topshiriqni bajarishda o'quvchi nafaqat ko'rsatmaga amal qiladi, balki uni o'zicha talqin etadi, yangi shakl va mazmun bilan boyitadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda o'qituvchilarning kasbiy malaka oshirish masalalari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchi kompetensiyasi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, kreativ fikrlash tushunchasining nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng yoritilgan. Xususan, J. P. Guilford kreativlikni inson tafakkurining muhim komponenti sifatida baholab, uning asosiy ko'rsatkichlari sifatida moslashuvchanlik, originallik va fikrlar oqimini ajratib ko'rsatadi [7; 3–5-b.]. L.S. Vygotskiy esa bolalik davrida tasavvur va ijodiy faoliyatning shakllanishini ijtimoiy muhit bilan bog'lab, kreativlikni rivojlantirishda ta'limning yetakchi rolini asoslaydi [8; 25–27-b.]. Ushbu nazariy qarashlar boshlang'ich ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirishning psixologik-pedagogik poydevorini tashkil etadi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham kreativ fikrlash masalasi chuqur o'rganilgan. Xotamov I.S., Olimov M.K. va Madrahimova G.R. kreativ fikrlashni shaxsning muammoli vaziyatlarda noodatiy yechim topa olish qobiliyati sifatida izohlaydi hamda uni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik sharoitlar zarurligini ta'kidlaydi [3; 45–47-b.]. Abdullayeva M. ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatib, o'quvchilarning faolligini oshirish orqali ijodiy tafakkur shakllanishini asoslab beradi [10; 28–30-b.].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishga oid tadqiqotlar ham alohida e'tiborga loyiqdir. Baxritdinova D.Z. va Karimova L.L. o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda muammoli vaziyatlar yaratish va erkin topshiriqlardan foydalanish samarali ekanligini qayd etadi [11; 15–17-b.]. Raximov X.A. va Xudoyberdiyeva N. esa o'quv faoliyatida kreativ fikrlashni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi [12; 20–22-b.]. Satbayeva M.T. tomonidan taklif etilgan metodlarda esa o'yin, loyiha va amaliy faoliyat asosida kreativlikni rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan [13; 18–19-b.].

Texnologiya darslarining didaktik imkoniyatlari ham ilmiy adabiyotlarda keng tahlil qilingan. Jo'rayev P.X. va Raximov B.X. texnologiya darslarini o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning ijodiy tafakkurini shakllantirish uchun qulay muhit sifatida baholaydi [4; 90–92-b.]. Tolipov O'Q. va Usmonboyeva M. pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etish mumkinligini asoslab, innovatsion metodlarning ahamiyatini ko'rsatadi [5; 60–62-b.].

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ham muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Muslimov N.A. o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida uzluksiz malaka oshirish tizimining ahamiyatini ta'kidlab, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish zarurligini ko'rsatadi [6; 55–57-b.]. Shu bilan birga, Mirziyoyev Sh.M. asarlarida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va pedagog kadrlar salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1; 100–102-b.; 2; 15–17-b.].

Xorijiy tadqiqotlarda ham kreativ fikrlashni rivojlantirish va o'qituvchilar tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik alohida ta'kidlanadi. Drapeau P. o'quvchilarning kreativligini rivojlantirishda o'qituvchining innovatsion yondashuvi va metodik tayyorgarligi hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi [9; 40–42-b.]. Bu esa mazkur maqolada ilgari surilgan fikrlar bilan hamohangdir.

Shuningdek, Kalandarova N.B. va Abduraxmonova G.R. hamda Musurmonova X.N. va Muxitova S.N. tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan [14; 21–23-b.; 15; 30–32-b.].

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish ko'p omilli jarayon bo'lib, unda o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, metodik mahorati va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois o'qituvchilarning malaka

oshiirish tizimini takomillashtirish mazkur muammoning samarali yechimlaridan biri sifatida qaraladi.

Metodologiya. Tadqiqotda pedagogik va psixologik yondashuvlarga tayangan holda ilmiy adabiyotlar tahlili, kuzatish, so'rovnoma va pedagogik tajriba-sinov metodlari qo'llanildi. Jarayonda interfaol usullar, loyiha asosida o'qitish va muammoli ta'lim elementlari joriy etilib, ularning o'quvchilarning kreativ fikrlashga ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar qiyosiy tahlil asosida baholanib, o'qituvchilarning malaka oshirish darajasi bilan o'quvchilarning ijodiy faolligi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi.

Natijalar. Texnologiya darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish boshlang'ich ta'limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan shu darslar orqali o'quvchilar nafaqat qo'l mehnati va amaliy ko'nikmalarni, balki mustaqil fikrlash, tasavvur qilish va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini ham egallaydilar. Kreativ fikrlashni shakllantirish esa oddiy topshiriqlarni bajarish bilan emas, balki o'quvchini faol, izlanishga undovchi va erkin fikr yuritishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni orqali amalga oshiriladi. Avvalo, texnologiya darslarida topshiriqlarni ochiq va ko'p variantli tarzda berish muhimdir. Ya'ni o'quvchiga faqat bitta to'g'ri javob yoki yagona namuna berilmasligi kerak. Masalan, "gul yasang" degan topshiriq o'rninga "o'zingiz tasavvur qilgan gul modelini yarating" deyilsa, har bir o'quvchi o'zicha yondashadi. Bu esa ularning tasavvur doirasini kengaytiradi va ijodiy fikrlashga undaydi. Shuningdek, muammoli vaziyatlar yaratish ham samarali usullardan biridir. O'qituvchi o'quvchilarga ma'lum bir muammoni taqdim etib, uni qanday hal qilish mumkinligini mustaqil izlashga yo'naltiradi. Masalan, "qanday qilib chiqindi materiallardan foydali buyum yasash mumkin?" kabi savollar o'quvchilarni izlanishga, tajriba qilishga va noodatiy yechim topishga majbur qiladi.

Guruhiy ishlar ham kreativlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Jamoada ishlash jarayonida o'quvchilar o'z g'oyalarini boshqalar bilan bo'lishadi, fikr almashadilar va yangi g'oyalar paydo bo'ladi. Bu jarayon nafaqat ijodiy fikrlashni, balki muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, loyiha asosida o'qitish texnologiya darslarida juda samarali hisoblanadi. O'quvchilar ma'lum bir loyiha ustida ishlash orqali rejalashtirish, material tanlash, dizayn yaratish va yakuniy mahsulotni taqdim etish bosqichlarini bosib o'tadilar. Bu esa ularning fikrlash jarayonini chuqurlashtiradi va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi. O'qituvchining roli bu jarayonda nihoyatda muhimdir. U faqat ko'rsatma beruvchi emas, balki o'quvchilarni rag'batlantiruvchi, ularning g'oyalarini qo'llab-quvvatlovchi va yo'naltiruvchi bo'lishi kerak. Ayniqsa, o'quvchilarning har qanday ijodiy urinishi ijobiy baholanishi, xatolar esa o'rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilinishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatan faol, qiziquvchan va yangilikka intiluvchan bo'ladilar. Ularning bu xususiyatlarini to'g'ri yo'naltirish esa o'qituvchining asosiy vazifasidir. Agar dars jarayoni faqat tayyor namunalarni takrorlashga asoslangan bo'lsa, o'quvchilar ijodiy fikrlash imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Aksincha, o'qituvchi ochiq savollar, erkin topshiriqlar, muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilarni mustaqil izlanishga undasa, ular o'z g'oyalarini erkin ifoda eta boshlaydilar. Masalan, oddiy bir buyumni yasash topshirig'i turli xil yechimlarga ega bo'lishi mumkinligini o'quvchilarga tushuntirish orqali har bir bolaning individual yondashuvi qo'llab-quvvatlanadi. Biroq bunday yondashuvni samarali tashkil etish o'qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyani talab etadi. Zamonaviy o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochib beruvchi rahbar, maslahatchi va motivator bo'lishi kerak. Bu esa doimiy o'rganish, izlanish va o'z ustida ishlashni talab qiladi. Malaka oshirish jarayonlari aynan shu ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

O'qituvchilarning malaka oshirishi – bu ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, ilg'or tajribalarni o'rganish jarayonidir. Ayniqsa, kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni o'rganish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida interaktiv usullar, loyiha asosida o'qitish, STEAM yondashuvi, muammoli ta'lim kabi metodlar keng qo'llanilmoqda [4; 90–92-b.]. Bu metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, loyiha asosida o'qitish texnologiya darslarida ayniqsa samarali hisoblanadi. O'quvchilar muayyan muammoni hal qilish uchun loyiha ishlab chiqadilar, material tanlaydilar, dizayn yaratadilar va yakuniy mahsulotni taqdim etadilar. Bu jarayon davomida ular nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki tahlil qilish, rejalashtirish, ijodiy fikrlash va o'z fikrini himoya qilish kabi kompetensiyalarni ham egallaydilar. Bunday faoliyatni tashkil etish esa o'qituvchidan puxta metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchining malaka oshirishi uning darsga bo'lgan yondashuvini tubdan o'zgartiradi. Malaka oshirish kurslarida o'qituvchi yangi g'oyalar bilan tanishadi, tajriba almashadi, zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanishni

o'rganadi. Natijada u darslarni yanada qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning ijodiy faolligini rag'batlantiradi.

Texnologiya darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish va o'qituvchilarning malaka oshirish jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'langan ikki muhim pedagogik yo'nalish hisoblanadi. Bu bog'liqlikni tushunish uchun avvalo ta'lim jarayonining markazida kim turishini anglash lozim: o'quvchi faol bo'lishi kerak, ammo aynan o'qituvchi shu faoliyatni tashkil etuvchi asosiy kuchdir. Demak, o'quvchining kreativ fikrlashi qanchalik rivojlangan bo'lsa, bu ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy darajasi va zamonaviy yondashuvlarni qay darajada egallaganiga bog'liq bo'ladi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish an'anaviy dars usullari bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayonda o'quvchi mustaqil fikr yuritishi, savollar berishi, tajriba o'tkazishi va yangicha yechimlar topishi kerak. Bunday muhitni yaratish esa o'qituvchidan yangicha metodlarni bilishni, darsni innovatsion tarzda tashkil etishni talab qiladi. Aynan shu yerda o'qituvchilarning malaka oshirish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. Malaka oshirish o'qituvchiga faqat yangi bilim beribgina qolmay, balki uning pedagogik qarashlarini ham yangilaydi. Zamonaviy kurslar orqali o'qituvchi interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, STEAM yondashuvi kabi usullarni o'rganadi. Bu metodlar esa to'g'ridan-to'g'ri o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, loyiha asosida tashkil etilgan darsda o'quvchi oddiy topshiriqni bajaruvchi emas, balki muammoni hal qiluvchi, g'oya ishlab chiquvchi va natijani himoya qiluvchi subyektga aylanadi. Shu bilan birga, malaka oshirish jarayonida o'qituvchi tajriba almashadi, boshqa pedagoglarning ilg'or ish uslublari bilan tanishadi va ularni o'z faoliyatiga moslashtiradi. Bu esa darslarning samaradorligini oshiradi. Natijada o'quvchilar uchun yanada erkin, qiziqarli va ijodiy muhit yaratiladi. Bunday muhitda esa kreativ fikrlash tabiiy ravishda rivojlanadi. Yana bir muhim jihat shundaki, kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun o'qituvchining o'zi ham ijodkor bo'lishi kerak. U yangilikdan qo'rqmasligi, tajriba qilishga tayyor bo'lishi va har bir darsni yangicha tashkil etishga intilishi lozim. Bu sifatlar esa o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki muntazam malaka oshirish, o'z ustida ishlash va izlanish orqali rivojlanadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini ham muhim rol o'ynaydi. Ochiq fikrli, yangilikka intiluvchi, ijodkor o'qituvchi o'quvchilarga ham shunday ruhni singdira oladi. Aksincha, faqat an'anaviy usullarga tayanadigan o'qituvchi o'quvchilarning imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin. Shu sababli malaka oshirish jarayonlari nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki o'qituvchining pedagogik

dunyoqarashini ham rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Yana bir muhim jihat shundaki, texnologiya darslarida kreativlikni rivojlantirish uchun qulay ta'lim muhiti yaratilishi zarur. Bu muhitda o'quvchilar erkin fikr bildira olishi, xatolardan qo'rqmasligi va tajriba qilish imkoniga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi esa bu jarayonda qo'llab-quvvatlovchi va yo'naltiruvchi rolini bajaradi. Bunday muhitni yaratish ham o'qituvchining kasbiy mahoratiga bevosita bog'liqdir.

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish va o'qituvchilarning malaka oshirishi bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro ta'sir qiluvchi uzluksiz jarayondir. Ta'lim sifati bevosita o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bog'liq bo'lgani kabi, o'quvchilarning ijodiy salohiyati ham aynan shu tayyorgarlik darajasida shakllanadi. Agar o'qituvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni puxta egallagan, yangilikka ochiq va izlanishga tayyor bo'lsa, u texnologiya darslarini oddiy amaliy mashg'ulotdan haqiqiy ijodiy muhitga aylantira oladi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish esa bugungi kunda shunchaki qo'shimcha maqsad emas, balki ta'limning asosiy natijalaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyat qozonish uchun insondan faqat bilim emas, balki moslashuvchan fikrlash, muammolarni hal qilish va yangilik yaratish qobiliyati talab etiladi. Bu sifatlar esa aynan boshlang'ich bosqichda, soddaga, ammo mazmunli faoliyatlar orqali shakllanadi. Texnologiya darslari bu borada eng qulay maydon bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilarning malaka oshirishi esa ushbu jarayonning harakatlantiruvchi kuchidir. Malaka oshirish orqali o'qituvchi nafaqat yangi metod va texnologiyalarni o'rganadi, balki o'zining pedagogik tafakkurini ham boyitadi, darslarga yangicha nioh bilan qarashni boshlaydi. Bu esa o'quvchilar uchun yanada erkin, rag'batlantiruvchi va ijodiy muhit yaratilishiga olib keladi. Natijada o'quvchilar faqat topshiriq bajaruvchi emas, balki fikrlovchi, izlanovchi va yaratuvchi shaxs sifatida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kreativ fikrlashni rivojlantirish va o'qituvchining malaka oshirishi o'rtasidagi bog'liqlik — bu sabab va natija munosabatidir. Ya'ni malakali, zamonaviy bilimlarga ega o'qituvchi — kreativ fikrlovchi o'quvchini tarbiyalaydi. Aksincha, o'qituvchi o'z ustida ishlamasa, darslar bir xil qolipda davom etadi va bu o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Umuman olganda, ta'lim tizimida yuqori natijalarga erishish uchun faqat o'quv dasturlarini yangilash yetarli emas, balki o'qituvchilarning doimiy kasbiy rivojini ta'minlash zarur. Chunki aynan o'qituvchi har qanday islohotning amaliy ijrochisi hisoblanadi. Demak, boshlang'ich sinflarda texnologiya darslari samaradorligini oshirish, o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish va ularni kelajak hayotga tayyorlash uchun o'qituvchilarning malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz." – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz." – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. Xotamov I.S., Olimov M.K., Madrahimova G.R. "Kreativ fikrlash." – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
4. Jo'rayev P.X., Raximov B.X. "Yangi pedagogik texnologiyalar." – Toshkent: Fan, 2005.
5. Tolipov O'Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot." – Toshkent: Fan, 2005.
6. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi." – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
7. Guilford J.P. "Creativity." American Psychologist, 1950.
8. Vygotsky L.S. "Imagination and Creativity in Childhood." Cambridge University Press, 2004.

9. Drapeau P. "Sparkling Student Creativity." Alexandria, USA: ASCD, 2014.
10. Abdullayeva M. "Ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish." – Toshkent, 2020.
11. Baxritdinova D.Z., Karimova L.L. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirish." PEDAGOGS jurnali, 2025.
12. Raximov X.A., Xudoyberdiyeva N. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'quv faoliyatida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish."
13. Satbayeva M.T. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darslarda kreativ fikrlashga o'rgatish metodlari."
14. Kalandarova N.B., Abduraxmonova G.R. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ salohiyatini shakllantirish texnologiyasi."
15. Musurmonova X.N., Muxitova S.N. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishda qo'llaniladigan texnologiyalar."